

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

TEXNIKA FAKULTETI

«QURILISH VA ARXITEKTURA» KAFEDRASI

DIPLOM LOYIHASI BO'YICHA

TUSHINTIRISH XATI

Diplom loyihasining mavzusi: Xonqa tumanida 3000 kishilik axoli punktini loyihalash.

Bitiruvchi: 113-QXALTE guruh talabasi:  Abdullaeva M

Kafedra mudiri:  dots. Raxmonov *B*

Diplom loyihasi rahbari:  Atajanov SH.O

Maslahatchilar:

1. Arxitektura qismi



Atajanov SH.O

2. Iqtisodiyot qismi

o'qit. Tojiev Yu.

3. Qurilish texnologiyasini tashkil qilish qismi



o'qit. Akimov E.

4. Mehnat va atrof muxit muhofazasi qismi



o'qit. Quryozov Q.

Urganch - 2018 yil

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

TEXNIKA FAKULTETI

«QURILISH VA ARXITEKTURA» KAFEDRASI

DIPLOM LOYIHASINI BAJARISH BO'YICHA

(bog'-parq landshaft loyihalash bo'yicha)

TOPSHIRIQ

Abdulloeva Mohinur

(talabaning familiyasi, ismi-sharifi)

1. Diplom loyihasing mavzusi: Xonqa tumanida 3000 kishilik axoli yashash punktini loyihalash.

UrDU bo'yicha 2018 yil « _____ » _____ dagi _____ - son buyruq bilan tasdiqlangan.

2. Diplom loyihasing bajarish uchun ma'lumotlar: Majmuoning xolat tarxi M- 1:10000, 1:2000, shamol guli, bosh rejada kichik arxitekturaviy inshootlar tarxi va tarzi, atraksionlar, manzarali va mevali daraxtlarning tasnifi xamda inshootlar qaydnomasi.

3. Tushintirish xatida keltiriladigan ma'lumotlar (70-80 varaq A- 4 format-da qo'lyozma tarzida yoki 40-50 varaq kompyuterda yozilgan matnlar):

a) Arxitektura qismi bo'yicha: Xolat tarxi, shamol guli, bosh rejada kichik arxitekturaviy inshootlarni va atraksionlarni rejalashtirish echimi, kichik arxitektura inshootlarining tarxi va tarzi, istiroxat bog'ining funktsional echimi manzarali va mevali daraxtlar xamda inshootlar qaydnomasi.

b) Transport qismi bo'yicha: Majmuoga tashrif buyuruvchi avtomobillar sonining me'yoriy asoslarga binoan avtomobillar to'xtash va to'xtab turish joyini loyihalash, ichki yo'laklar, tashqi transport yo'llari, piyodalarning istirohat bog'iga o'tish yo'llari, er osti tunellari va er usti ko'priklar va xakoza. Majmuoda maxsus transportlarni xarakatini rejalashtirish masalalari xal qilinishi lozim.

v) Muxandislik jixozlari qismi bo'yicha: Majmuoda binolarning suv ta'minoti, sug'orish va chiqindi suv tarmoqlarini o'tkazish, quvurlarni yotqizilishi, bog'dagi inshootlarning, yo'l va yo'laklarning tunda yoritilishi, elektr tarmoqlarining o'tkazilishi xamda zarurat bo'lgan xollarda gaz quvurlarining o'tkazilishi (xajmi maslaxatchi tomonidan belgilanadi).

g) Mehnat va atrof muxit muhofazasi qismi bo'yicha: Mexnatni muxofaza qilish bo'yicha topshiriq loyihalananayotgan ob'ektning joylashgan o'rniga, ishlab - chiqarish yoki xizmat ko'rsatishning turiga, ishlab chiqarishning aniq spetsifik xolatiga yondoshgan xolda beriladi. Bu bo'limni bajarishda quyidagilarga e'tibor qaratish muximdir:

Mexnatni muxofaza qilish bo'yicha texnik echimlar loyiha xujjatlarida to'g'ri xal qilinishiga va loyihada istiroxat bog'ining sanitar - maishiy xolatini, istiroxat bog'ida yong'in xavfsizligi qurilmalari to'g'ri qabul qilinganligiga;

Aholi punkitida qurilishi jarayonida va ob'ektni ekspluatatsiya qilish jarayonida:

a) mexnatni muxofaza qilishning qonuniy asoslariga;

b) ishlab - chiqarish sanitariyasi va gigienasi qoidalariga;

s) xavfsizlik texnikasining barcha masalalariga;

d) ishlab - chiqarishda yong'inga qarshi kurash chora tadbirlariga keng e'tibor qaratish va yon'gin paytida odamlarni evakuatsiya qilish masalalarini xal qilish lozimdir.

e) Iqtisodiyot qismi: Aholi punkitida obodonlashtirishda qo'llanilgan zamonaviy an'anaviy ilg'or uslubning qanchalik yaxshi iqtisodiy samara berishini ochib berish uchun ob'ektda bajariladigan QMI baxosini xisoblash va sarflangan xar bir so'm kapital mablag' xisobiga olinadigan iqtisodiy samaradorlikni xisoblash lozim

j) **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:** *Adabiyotlar ro'yxati – o'rganilgan chizmalar, tasvirlar, adabiyotlar, me'yoriy xujjatlar, ilmiy maqolalar, boshqa manbalardan to'plangan ma'lumotlar to'la taxlil qilinadi. Ulardan olingan ma'lumotlarni lo'nda qilib ifodalash zarur. Talaba yozayotganda Internet saydlaridan, o'zi tuzgan manbalar kartotekasidan foydalanadi.*

z) **Mundarija:** *Diplom loyiha ishining kema-ketligi kursatiladi unda mumkin qadar ishning bajarilish tartibi aks etishi lozim.*

4. **Diplom loyihasining chizmalari ro'yhati (80 x 90 sm formatda 4 list doskada chizmasi yoki bog-park qismining maketi bo'lishi kerak):**

a) **Arxitektura chizmalari:** *Xolat tarxi, shamol guli, bosh rejada kichik arxitekturaviy inshootlarni va atraksionlarni rejalashtirish echimi, kichik arxitektura inshootlarining tarxi va tarzi, manzarali va mevali daraxtlarning tasnifi xamda inshootlar kaydnomasi.*

b) **Transport qismi bo'yicha:** *Majmuoga tashrif buyuruvchi avtomobillar sonining me'yoriy asoslarga binoan avtomobillar to'xtash va to'xtab turish joyini loyihalash, ichki yo'laklar, tashqi transport yo'llari, piyodalarning aholi punktida o'tish yo'llari, er osti tunellari va er usti ko'priklar va xakoza. Majmuoga maxsus transportlarni xarakatini rejalashtirish masalalari xal qilinishi lozim.*

v) **Muxandislik jixozlari qismi bo'yicha:** *Majmuoga oshxonaga yoki muzqaymok kafega qanday quvurlar orqali ichimlik suvi va chiqindi suvi quvurlari yotkizilishi, bog'dagi inshootlarning tunda yoritilishi, elektr tarmoklarining o'tkazilishi xamda zarurat bo'lgan xollarda gaz quvurlarining o'tkazilishining texnik chizmasi A-4 formatga mos bo'lgan masshtab asosida chiziladi.*

5. **Diplom loyihasi qismlari bo'yicha maslahatchilar:**

No	Diplom loyihasining Qismlari	Boshlanish muddati	Tugallanish muddati	Imzo	Maslahatchining familiyasi I.SH.
1	Arxitektura qismi				Atajanov SH O.
2	Iqtisodiyot qismi				o'qit.Tojiev Yu.
3	Qurilish texnologiyasini tashkil qilish qismi				O'qit. Akimov E
4	Mehnat va atrof muxit muhofazasi qismi				o'qit.Quryozov Q

Izoh: * - Diplom loyihasi rahbarining taklifiga binoan, mutaxassis chiqaruvchi kafedra loyihaga rahbarlik qilishga ajratilgan vaqt limiti hisobidan loyihaning ayrim bo'limlari bo'yicha maslahatchilarni taklif etishi mumkin.

6. **Topshiriq berilgan sana** _____

7. **Tugallangan diplom loyihasini topshirish sanasi** _____

Diplom loyihasi rahbari

Atajanov SH O. (imzo)

Topshiriq bajarish uchun qabul qilindi

Abdulloeva M. (imzo)

Kafedra mudiri

dots. Raxmonov B. (imzo)

Kirish

O'zbekiston mutloq o'ziga xos demografik holatga ega bo'lgan respublika hisoblangani holda, aholi joylashtirishni shakllantirishning juda muhim regional xususiyatlari bilan ajralib turadi. Aholi o'sish soni boshqa respublikalarga qaraganda nisbatan oshib bormoqda. Jumhuriyatimiz xukumati va xalqimiz nomzodlari olg'a surayotgan ijtimoiy va iqtisodiy tadbir va yo'nalishlar nafaqat qishloq aholisini, balki butun yurtimiz xalqini yangi ijobiy izlanishlarga undamokda. Viloyatimizning tabiiy sharoitlariga tayangan holda paxta, sholi, bug'doy yetishtirishga ixtisoslashtirilganligi asosan, zamonaviy qishloq va shaxar aholi joylashuvini shakllantirishni belgilaydi. SHunga ko'ra, eski shudgor qilingan paxta ekiladigan maydonlarda tashkil bo'lgan aholi xududlarida aholining zich joylashuvi, yahni, areallari paydo bo'lgan. Yangi paydo bo'ladigan qishloq aholi xududlarida esa, o'ziga xos aholi joylashuv turlari paydo bo'ladi. Natijada uy-joy rejasini xal qilish, oilalarning oziq-ovqat maxsulotlari bilan o'z-o'zini tahminlashlarini yaxshilash, bozorlarni tuldirish, aholini ish bilan tahminlashni kuchaytirish kabi bir qancha xayotiy muhim ijtimoiy vazifalar bir-biriga bog'liq holda xal etilmokda. Qishloqlarni ijtimoiy-madaniy rivojlantirish g'oyat muxim umumdavlat va umumxalq, vazifasiga, xukumatimizning hozirgi davrdagi zirotchilik siyosatining tarkibiy qismiga aylanmoqda.

SHuningdek, qishloq aholi hududlarining yashashga qulay va shinam turarjoy binolarining jamoat markazlarida maxalla guzarlari, qishloq vrachlik punktlari, keng va qulay dam olish joylari, madaniy-maishiy xizmat ko'rsatish inshootlari va osilena ijtimoiy binolar bilan majmua tarzda qurilishi ham bugunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Mavjud qishloq aholi hududlarida yahni, maxallalarida yangi jamoat markazlari paydo bo'lmoqda, maxalla qo'mitalari uchun mahmuriy binolar sharqona uslubda qad ko'tarmokda, sartaroshxona, dorixona, choyxona, savdo do'konlari va tibbiy xonalar aholiga xizmat qilmoqda.

SHunday markazlarni barcha maxallalarda tashkil etishimiz, ularga maxalla markazlaridan joy ajratib berishimiz lozim. SHuni tahkidlash kerakki, qishloq

aholisining mehnat sharoiti va turmush tarzi yaxshilanib madaniy saviyasi oshib borgan sayin, ularning turarjoy va jamoat markazlariga va umuman yashash muxitga bulgan badiiy-estetik talablari tobora zamonaviylashib, ko`qirrali bo`lib boraveradi.

Bunday sharoitda qishloqqurilishi majmualari va qishloqdagi madaniy o`zgarishlar uch yo`nalishda, ya`ni, ijtimoiy, iqtisodiy va mehmorchilik sohalaridagi yangi yirik tarmoqlar bo`lib yuzaga chiqadi. Ushbu mavzu Res`ublikamiz aholisining ijtimoiy hayotini yaxshilash va iqtisodiy rivojlanishini tahminlovchi eng muhim dolzarb muammolarni hal etishga doir yo`nalishga asoslangan.

O`zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan davrdan boshlab Hukumatimiz tomonidan arxitektura va shaharsozlik sohasiga asosiy ehtibor berilib, shaharsozlik sohasi faoliyatida bir qator O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari va Vazirlar Mahkamasining ushbu soha yuzasidan qarorlari qabul qilindi. O`zbekiston Respublikasining xozirgi zamon rivojlanishi bosqichida qishloq aholi `unktlarining jamoat markazlarini qurilishini keskin rivojlantirish talab etilib, aholining jamoat binolari turlariga bo`lgan extiyojlarini qondirish, va ularni tahmirlash dolzarb muammolardan biri xisoblanadi.

Bu aholi soni tabiiy o`shishining yuqoriligi, aholining madaniy-maishiy, mahnaviy va moddiy xizmat ko`rsatish inshootlari va ijtimoiy binolari, aholi soniga nisbatan extiyojini qondirish darajasining `astligi ham bugunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Aholi yashash sharoitini yanada yaxshilash, aholi yashash xududlaridagi jamoat markazlarini funksional rejaviy arxitektura-badiiy ko`rinishini takomillashtirish, aholi xududidan foydalanish samaradorligini oshirish shaharsozlik sharoitlarini to`laroq hisobga olish bilan bog`liqdir.

Bugungi kunda arxitektura va shaharsozlik sohasida olib borilayotgan isloxotlar to`g`risida ga`iradigan bo`lsak, O`zbekiston Respublikasi Prezidentining "O`zbekiston Respublikasida arxitektura va shahar qurilishini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida" gi farmoni hamda ushbu farmon ijrosi yuzasidan vazirlar Mahkamasining "Arxitektura va qurilish sohasidagi

ishlarni tashkil etish va nazoratni takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi, “SHaharlar, tuman markazlari, shahar tipidagi posyolkalar va qishloq aholi punktlarining shaharsozlik xujjatlarini ishlab chiqish va ularni qurish tartibi to`g`risidagi Nizomini tasdiqlash haqida”gi, “Arxitektura va shaharsozlik sohasidagi qonun hujjatlariga rioya qilinishi uchun rahbarlar va mansabdor shaxslarning javobgarligini oshirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi qarorlari va bir qancha shaharsozlik faoliyatida huquqiy-mehyoriy hujjatlar qabul qilingan bo`lib, uning ijrosini tahminlash borasida Davlat hokimiyati organlariga aholi punktlarining shaharsozlik xujjatlarini ishlab chiqilishini tashkil etish, bosh rejaga, batafsil rejalashtirish va qurilish loyihalariga rioya qilinishi, hududlarda yer ajratilishida qonun talablariga rioya etilishi, obyektlarni joylashtirishda bosh reja muallifi bilan kelishish, navbatchi bosh rejaning yuritilishi va joylarda “Arxitektura va shaharsozlik kengash”larining ish faoliyatlari tizimi yaratildi.

Bu borada, shaharsozlik sohasi faoliyatini rivojlantirishda 2002 yilda amalga kiritilgan O`zbekiston Respublikasining shaharsozlik kodeksini ahamiyati ham juda katta bo`ldi.

O`tgan 2008 yilda qurilish sohasida juda katta o`zgarishlar ro`y berdi. SHaharsozlik faoliyatini yanada takomillashtirish yo`lida bir qator xuquqiy-mehyoriy hujjatlar qabul qilindi.

SHular bilan bir qatorda, shahar qurilishida tegishli tartib o`rnatish va ularning uzoq istiqbolga mo`ljallangan kom`leks rekonstruktsiya qilinishini tahminlash, shahar markazlari va arxitektura komplekslari qurilishi bosh rejalarida shaharlarning transport magistrallari va ko`cha-yo`l tarmoqlarini kompleks rivojlantirish bo`yicha qabul qilinadigan loyihalar sifatini oshirish, shuningdek SHaharsozlik kodeksi talablariga, shahar qurilishining tasdiqlangan norma va qoidalariga rioya etilishi uchun mashuliyatni kuchaytirish maqsadida O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 26 aprelda “SHaharlarda yo`l qurilishni takomillashtirish borasidagi qo`shimcha chora tadbirlar to`g`risida”gi ‘Q-62 sonli hamda joylarda aholi punktlarini qurishda qarorlar qabul qilishda aholi punktlarini istiqbolga mo`ljallangan butun infratuzilmasini, yahni jamoat markazlari, turar joy muhiti, ko`cha-yo`l tarmog`i, tarixiy va madaniy meros obyektlari, aholi yashash

sharoiti va ekologiya muhitini rivojlantirish masalalari yechimi hisobga olinib shaharsozlik hujjatlarini belgilangan muddatlarda ishlab chiqishni tahminlash borasida 2005 yil 30 avgustda “SHaharlar, shahar posyolkalari va qishloq aholi punktlari bosh rejalarini tadbiq etish jarayonini takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi ‘Q-165 sonli qarorlari qabul qilinganligi hammamizga ma’lum.

Bu ikkita qaror bir biriga chambarchas uzviy bog`langan bo`lib Qo`mitaning va uning hududiy organlarining olib borayotgan ishlarida hamda Davlat hokimiyati organlarining shaharsozlik faoliyati sohasi yuzasidan olib borayotgan ishlarida mahsuliyat bilan yondashishni talab etadi.

O`zbekiston Respublikasi SHaharsozlik kodeksining 26-moddasida shaharsozlik hujjatlarining tarkibi belgilangan bo`lib, shaharsozlik hujjatlari quyidagilardan iborat:

1.O`zbekiston Respublikasi butun hududi hamda qismlarinirejalashtirish to`g`risidagi hujjatlar.

2.O`zbekiston Respublikasi mintaqalari hududini rivojlantirishni rejalashtirish to`g`risidagi hujjatlar.

3.Aholi punktlari hududini rivojlantirish to`g`risidagi hujjatlar:

- aholi punktlari bosh rejalar;
- shahar va poselka chizig`i loyihalari;
- aholi punktlari xududini rivojlantirishning tarmoq tarxlari kiradi.

4.Aholi punktlari xududini qurish to`g`risidagi xujjatlar:

- batafsil rejalashtirish loyihasi;
- qurish loyihasi kiradi.

5.Binolar, inshootlar va boshqa obyektlar qurilishi uchun loyiha-smeta hujjatlari.

Bu borada, qo`mita tomonidan shaharsozlik sohasida tegishli normativ xujjatlar tizimi ishlab chiqilib, ular soha faoliyatida - loyihalashtirish, loyihalarni ekspertiza qilish, pudrat savdolarini o`tkazish, qurish, kurilish sifati ustidan davlat nazoratni olib borish, qurib bitirilgan obyektlarni foydalanishga qabul qilishda tadbiq qilinmoqda.

ARXITEKTURAVIY

KISMI

Raxbar:

Bitiruvchi:



Atajanov SH.O

Abdulloeva M

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2009 yilni "Qishloq taraqqiyoti va faravonligi yili" deb e'lon qilinganligi barchamizni oldimizda nihoyatda mashuliyatli vazifalarni qo'yimoqda.

Bu – zamonaviy arxitektura va shaharsozlik talablardan kelib chiqib, namunali loyihalar ishlab chiqish va qo'llash, qishloqlarimizning qiyofasini sifat jihatdan tubdan o'zgartirish, qurilishi ko'lamini oshirish hamda uni industriallashtirish, qishloq joylarda mahalliy xom ashyo va mehnat resurslaridan keng foydalangan holda yangi va zamonaviy qurilish materiallarini ishlab chiqishni tashkil etish asosida uy-joy, ijtimoiy va maishiy hamda madaniy obyektlar qurilishidan, avtomobil yo'llarining holatini, trans'ort va kommunikatsiya xizmatlarini yaxshilashdan, umuman qishloq aholi punktlarining qiyofasini o'zgartirishdan va pirovardida qishloq turmushining sifat darajasini yanada oshirishdan iborat.

Bu borada qishloqlarimizning tashqi qiyofasini tubdan o'zgartirish, shaharsozlik normalari va qoidalari hamda tasdiqlangan bosh rejalar va namunaviy loyixalar asosida uy-joylar va ijtimoiy soha inshootlarini bar'o etish masalasi printsiptial muhim va xal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ushbu kontsepsiyadan kelib chiqib shaharsozlik sohasida amalga oshilishii lozim bo'lgan ishlarga batafsil tuxtalib o'tadigan bo'lsak. Bugungi kunda Res'ublikamizning qishloq aholisi 12 mingtaga yaqin qishloqda istiqomat qiladi, shulardan bor-yo'g'i 5718 tasining bosh rejasi mavjud, ushbu rejalarining 4063 tasini qayta ishlab chiqish zarur.

Yangi va qayta ishlanishi lozim bo'lgan qishloq aholi punktlarining bosh reja loyihalarini ishlab chiqish va davlat hamda ekologiya ekspertizalari hulosalarini olish uchun jami 400 mlrd so'mga yaqin mablag' talab etiladi. Ushbu mablag'ni davlat hokimiyati organlari tomonidan ajratish imkoniyati yo'qligini hisobga olib, qishloq joylarini shaharsozlik xujjatlari bilan qisqa muddatda va kamroq mablag' evaziga tahminlash uchun Qo'mita tomonidan har bir qishloqning alohida bosh rejasini ishlab chiqmasdan ularni sxematik rejalashtirish hujjat bilan tahminlaydigan qishloq fuqarolari yig'inlari negizida uning hududini mehmoriy–rejalashtirishni tashkillashtirish loyihasi (XMRTK) ishlab chiqish taklifi kiritildi.

Taklifga asosan Vazirlar Mahkamasi 2055 ta (XMRTK) loyihalarni 2003-2010yillarda ishlab chiqish jadvalini tasdiqlab, moliyalashtirilishini tahminlash yuzasidan davlat hokimiyati organlariga tegishli to' shiriq berildi. Bugungi kunga kelib 101 ta loyiha yakunlanib belgilangan tartibda tasdiqdan o'tkazilgan.

Bu borada, qishloq hududlarini rejalashtirish va tashkil qilish loyihalarini ishlab chiqishning normativ bazasini yaratish uchun SHNQ 2.07.04-06 "Qishloq xo'jaligi korxonalarini xududlarini rejalashtirish va tashkil qilish" normativ hujjat, ko'llanma qayta ishlab chiqildi. Ushbu normativ hujjatning qayta ishlab chiqilishi zarurligi qishloqda mulkchilik shakllarining va qishloq aholisi turmush sharoitining o'zgarganligi bilan bog'liqdir.

Qishloq xududlarini mehmoniy-rejalashtirish va tashkil qilish loyahasida:

1. Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining hududiy tashkil etilishini takomillashtirish.
2. Axolining ho'jaliklar ichidagi joylashuvini shakllantirish va aholi punktlarining istiqboldagi rivojlanishi miqyoslarini belgilash.
3. Aholi sonining hisob-kitobi va ularning 1-navbatda va hisob-kitobdagi davrda ishga joylashtirishga doir takliflar.
4. Qishloq ho'jalik korxonasining muhandislik infratuzilmasini tashkil etish va quyidagi yo'nalishlar bo'yicha ishlar hajmlarini belgilash:
 - suv ta'minoti va kanalizatsiya;
 - gazlashtirish va issiqlik ta'minoti;
 - elektrta'minoti, telefonlashtirish va radiolashtirish;
 - ko'chalar va yo'llar tarmoqlari.
5. Uy-joy qurilishini rivojlantirish.
6. Ijtimoiy infratuzilmani, maktab tahlimi va maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiya muassasalari tarmoqlarini tashkil etish.
7. Madaniy-maishiy xizmat ko'rsatish tizimini shakllantirish.
8. Aholiga tibbiy xizmat ko'rsatishni tashkil etish.
9. Rekreatsion muassasalar tarmog'ini tashkil qilish va hududning estetik xususiyatlarini oshirish bo'yicha takliflarni ishlab chiqish.
10. Transport-iyodalari kommunikatsiyalarini takomillashtirish.

11. Ekologik vaziyatni yaxshilash, tarixiy va madaniy yodgorliklarini, qimmatli landshaftlarni qo`riqlash, suv resurslarini, atmosfera havosini himoya qilish, yerlardan oqilona foydalanish bo`yicha takliflarni ishlab chiqish belgilangan.

SHu bilan birga, SHNK 1.03.10-06 “Qishloq xo`jalik korxonalarini hududlarini tashkil qilish, qishloq aholi punktlarining xududini rivojlantirish va qurishni rejalashtirish bo`yicha loyihalash-rejalashtirish xujjatlarining tarkibi, ularni ishlab chiqish, kelishish va tasdiqlash tartibi to`g`risidagi yo`riqnoma” normativ hujjat ishlab chiqilib harakatga kiritilgan.

Ushbu “Yo`riqnoma” qishloq xo`jalik korxonalarini hududlarini tashkil qilish, qishloq aholi punktlarining hududini rivojlantirish va qurishni rejalashtirish bo`yicha loyihalash-rejalashtirish xujjatlarining tarkibi, ularni ishlab chiqish, kelishish va tasdiqlash tartibini tartibga soluvchi mehyorlar va qoidalarni o`z ichiga oladi. Bulardan tashqari, SHNQ 2.07.04-06 “Qishloq xo`jaligi korxonalarini hududlarini rejalashtirish va tashkil qilish” hamda SHNQ 1.03.10-06 “Qishloq xo`jalik korxonalarini hududlarini tashkil qilish, SHNQ 2.07.01-03* SHahar va qishloq aholi punktlari hududlarini rivojlantirish va qurilishini rejalashtirish, bo`yicha loyihalash-rejalashtirish xujjatlarining tarkibi, ularni ishlab chiqish, kelishish va tasdiqlash tartibi to`g`risidagi Yo`riqnoma”ning davomi sifatida “Fermer xo`jaliklari kontseptsiyasini amalga oshirish bo`yicha shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiqish tartibi to`g`risida NIZOM” ishlab chiqilgan, qo`mita tomonidan tasdiqlanib harakatga kiritilgan. SHular bilan bir qatorda, qishloq aholi punktlari uchun printsiplial jihatdan yangi loyihalarning ishlab chiqilishida hududlarning iqlimiy, demografik, milliy shart-sharoitlarini va aholining maishiy ehtiyojlarini hisobga olgan holda bozor iqtisodiyotining rivojlanishi yangi tipdagi turar joy binolari qurilishi uchun o`z shaxsiy yer uchastkasida yakka tartibdagi mehnat faoliyati bilan shug`ullanish imkonini beradigan quyidagi “O`zqishloqloyiha” instituti tomonidan ishlab chiqilgan namunaviy uy-joylar loyiha turlari (tiplari) tavsiya etilmoqda:

ustaning uyi (kulolchilik, temirsozlik, ip gazlamalar, gilamlar to`qish va hokazo);
boshlang`ich maktab o`qituvchisining uyi;

tibbiyot bo`limi (punkti), dorixona va umumiy tahlillarni bajaradigan laboratoriyasi
bor shifokorning uyi;
fermerning uyi;
nonvoyxonaga ega uy;
choyxonaga ega uy;

Fermer xo`jaliklarining qishloq xo`jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun mo`ljallangan uchastkalarida kapital uy-joy qurilishi, shuningdek, ijtimoiy-madaniy-maishiy ob`ektlarning qurilishi qathiyan tahqiqlanadi.

Turar-joylar va bazaviy ijtimoiy-madaniy-maishiy ob`ektlarning qurilishi qishloq aholi punktlarida jamlanishi lozim.

Qishloq aholi punktlari hududlarining chegaralari ularning kelajakda kengaytirilishini hisobga olgan holda qishloq fuqarolar yig`ini (QFY) hududining mehmoniy-rejalashtirish va tashkil qilish loyihasida (HMRTK) belgilanishi kerak.

Prezidentimiz Islom Karimovning bir qator asarlarida ilgari surilgan islohatlarimizning asosiy tamoyillari to`g`risidagi fikr va qarashlarida ham mahallani obod qilish, yahni mahalla guzarlarini go`zal jamoat maskanlariga aylantirish zarurligi tahkidlab o`tilgan.

O`zbekiston tarixiy xududlarida (jumladan Xorazm) qishloq aholi punktlarining jamoat markazlarining rivojlanish jarayonida funksional – rejaviy tuzilishini tashkil etishning o`ziga xos tamoyillari shakllangan. Ular yuqorida qayd etilgan qator shaxarsozlik muammolarini xal etishda tarixiy tajribalari mujassamlashgandir. Ushbu tamoyillarning hozirgi zamon talablari asosida rivojlantirish va hayotga tadbiiq etilishi qishloq aholi punktlari, ayniqsa jamoat markazlarining funksional – rejaviy tuzilishini takomillashtirish imkonini beradi.

Xorazm viloyati O`zbekiston Respublikasining shimoliy g`arbiy qismida joylashgan. 1938 – yil 15 yanvarda tashkil etilgan. Viloyat hududi Amudaryo quyi oqimining chap sohilida, cho`l zonasida, Xorazm vohasining g`arbiy qismida, o`rtacha 100m balandlikda joylashgan ‘asttekislikdan iboratdir. Yer maydoni 6,05 ming kv km ni tashkil etadi va O`zbekiston hududining 1,4 foizini egallaydi. Mavjud aholi soni 2011 yil 1 iyul holatiga 1561,5ming kishiga teng bo`lib, zichligi

1 kv km ga 250 kishidan to`g`ri keladi. Aholining 21,9 foizi shaharda, 78,1 foizi qishloqda yashaydi.

- Xozirgi bozor iqtisodiyoti talablariga javob bera oladigan bino va inshootlarni imkon darajasida zamonaviy kilish, bo`lmaganlarini yangitdan bunyod kilish;

- “Xonqa” xududini o`sayotganini xisobga olib yangi oilalarga ajratilgan yer xududlari xamda davlat tomonidan rejalashtirilgan namunaviy uylarni xisobga olgan xolda xududni yaxlit tarxga ega bo`lgan zamonaviy arxitektura va shaxarsozlik qonun qoidalariga bo`ysinadigan yaxlit kurgon tashkil qilish. Tarkibida ish funktsiyalari bilan bir katorda madaniy, tomosha, kungilochar, muassalar shuningdek “Xohqa” axamiyatidagi savdo va xizmat kursatish obektlari bulgan ko`p funktsiyali majmualar yaratish;

- “Xonqa”sharoitida yashash sharoitini yaxshilashni ta`minlovchi xizmat ko`rsatuvchi obektlari bo`lgan turarjoy majmualarini yaratish;

- Yukori darajadagi yangi landshaft rekreasiya sistemasini yaratish;

- Hudud ichida mexnat urinlarini yaratish;


Mavjud kapital bulmagan va kurilmalarning asosiy vazifasiga mos kelmaydigan binolarni buzish, yangi kurilish, majmualarni rekonstruksiya qilish va injenerlik infrastrukturasi kurish kuzda tutiladi. Loyixalashning muxim sharti xududdan utuvchi trassasi bilan boglik rejaviy cheklashlarni xisobga olishdir.

Xududni loyixaviy tashkil etish

tsexi, makoron tsexi, sut Xonqa tumani. Viloyatning shimoliy qismida joylashgan. 1926 yil 29 sentyabrda tashkil etilgan (1962 yil 24 dekabrda Yangiariq tumaniga qo`shilgan. 1973 yil 26 dekabrda qayta tuzilgan). Hududi Amudaryoning chap soxilidagi pasttekislikda, Amudaryoning qadimgi deltasida joylashgan. Iqlimi keskin kontinental, qishi sovuq, yozi issiq. Tumanning shimoliy-sharqiy chegarsidan Amudaryo, Hududidan SHovot, polvonyop, Qulobod, Xonqaarna, Urgancharna, Olaja va boshqa magistral kanal va ariqlar oqib o`tadi. Tumanda paxta tozalash, g`isht zavodlari, "Xonqa guruch", don mahsulotlari kombinatlari, MTP, qurilish tashkilotlari, avtokorxon va boshqalar ishlab uribdi. O`zbekiston-Italiya "Meva" konservalash qo`shma korxonasi, kichik korxon va mikrofirmalar faoliyat ko`rsatadi. Xonqa qadimdan kulolchilik buyumlari bilan mashhur.

Urganch Xonqa magistral shimoliy kismida 3000 kishilik aholi punktini loyixalash loyixaviy tashkil yetish xududdan maksimal foydalanish, loyixaviy xududni zamonaviy strukturasi organik kiritish sharoitlarini yaratish kuzda tutadi. Loyixa urnida arxitektura talab va koidalariga mos xovli uylar kurilgan bulib xech kandy kismi buzilmadi. Aksincha xovli uylar orasidagi avvaldan mavjud bulgan bolalar uyingoxlari, ammo xozirda axoli tomonidan uzlashtirilgan bu yerlarga yangi zamon talabiga javob beradigan sport inshoatlari va uyingoxlar kurishni loixa ichiga kirgizdik bu albatta kishlok yoshlarini s`ortga bulgan eg`tiborini oshiradi deb uylaymiz.

Undan tashkari Xonqa tumani axolisini ish bilan taminlashga karatilgan g`oyalarni xisobga olgan xolda axoli turar joy yakinidagi bush yerlarga kichik mini sexlar loixasi kuzda tutilgan bulib bu davlat tomonidan nazarda tutilgan kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishga karatilgan say xarakatlarni amalga oshishini kuzda tutadi. Shular jumlasiga kichik tikuvchilar maxsulotlarini kayta ishlovchi mini sexlar, kishlok maxsulotlarini kayta ishlovchi sexlar shular jumlasidandir. Bularni amalga oshishi albatta Xonqa tumanida yashovchi xotin-kizlarni xamda bo`sh ishchilarni ish bilan taminlanishi kurg`on rivojiga katta xissa ko`shadi.



Xonqa tumani hududiy rivojining yo`nalishi rayon tabiiy sharoitlari, tabiiy va sun`iy planirovka cheklanuvlari yuzaga kelgan shaharsozlik vaziyati inobatga olingan avvalgi bosh plan ishlanmalariga asoslangan.

Ushbu bosh planda Xonqa tumanining asosiy rivoji qilib, xuddi avvalgidek, asosiy yo`lni shimoliy kismi qishloq xo`jalik yerlari hisobiga shimoliy-garbiy yo`nalishlar qabul qilingan. SHarkiy, janubiy yo`nalishlar qator sabab va sharoitlar bo`yicha cheklangan, aynan:

SHarkiy yo`nalish Xonqa tumanini suv bilan taminlovchi kanal va fermer xujaliklarini transport katnovini ta`minlovchi yo`lni mavjudligi bilan cheklangan;

Xonqa tumani ning sharqqa tomon rivojiga joy rel`efi, gidrogeologiya, geologik tuzilish va shamol rejimi qulaylik tug`diradi. Ushbu bosh planda shahar rivojining cheklanishida regional suv chiqarish inshootlari shahar rivoji cheklanishi vazifasini bajaradi. Kelajakda shahar muhitining shimoliy yo`nalishda rivojlanishi mo`ljallanyapti.

SHaharning perspektiv hududiy rivoji 30 yilga mo`ljalangan. 3000 kishini hisob olgan holda, aholi soni oshishi bilan muvofiqlikda fukorolarni qator turar joy binolari bilan ta`minlash nazarda tutilgan.

Birinchi navbatda yerlarining 42,1 ga o'lchamdagi hudud maydonga 3000 ming kishiga mojjallangan aholi punktini loyihalash.

Mavzuning dolzarbligini inobatga olib hamma arxitektura meyyo'r koidalarini hisobga olgan holda Xonqa tumani o'rganilib u yerda 3000 kishiga mo'ljalanga hamma infrastruktura inshootlari mavjud bo'lgan yangi aholi punktini loyihalashga qo'l urildi.

Xonqa tumani moljalangan 3000 kishilik aholi punktini loyihalashda zamonaviy va qulay turar-joylar, maishiy xizmat ko'rsatish shahobchasi, dam olish xududi, maktab, MTMLarini loyihalash.

Loyihalananayotgan diplom ish mavzusi Xonqa tumaniga 3000 kishilik aholi punktini loyihalash bo'lib u o'z ichiga amaliy tekshiruvlar, taxlil qilish, mahalliy aholining demografik tarkibi va loyihalash bo'yicha manbalarni o'rganish hamda loyihaviy takliflarni ishlab chiqishni o'z ichiga oladi.

Qat'iy funksional va sanitariya-gigiena talablari aholi punktini hajmiy-fazoviy kompozitsiyasini belgilovchi faktor xisoblanadi. Kompozitsion tuzilishiga ko'ra daha bir nechta turga bo'linadi:

1. Nukta;
2. Chizikli;
3. Burchakli;
4. Tarmoklangan;
5. Kichik (parallel);
6. Elpig'ich turdagi;
7. Ko'p nurli;
8. Erkin;
9. Tor parda usuli.

Chizikli usulda bir muncha sodda va bir qator afzalliklarga ega. Chizikli usulda barcha turar-joylar bir chizikda joylashadi. Chizikli usulda shakli boyicha biri bilan funksional bog'lanish tahminlanadi. Ammo shu bilan birga bahzi guruhlarni bir-biridan. Bahzi xollarda Chizikli usulda bino tarkibida ochiq xovli yoki yopiq xovli loyixalanadi. Bu xollarda xovli o'zaro bog'lovchi, asosiy element rolini bajaradi.

Chizikli kompozitsiya eng ko'p tarqalgan tiplardan biridir. Chizikli usulda yaxshi orientatsiya qilish, xonalarni yaxshi shamollatish sharoitlarini yaratishga imkon beradi. SHu sababli loyixada bu usuldan keng foydalaniladi.

Chizikli usulda asosan yuqori seysmik rayonlarda va kuchli relg'efli joylarda ham Chizikli usul keng qo'llaniladi. Chizikli usulga ajratilgan maydon murakkabliklaridan hamda relg'efdan muvaffaqiyatli foydalanish imkonini beradi. Binoni landshaft bilan uyg'unlashtirishda bu usulning ahamiyati katta.

Dahani loyihalash uchun Xonqa tumani sharqiy qismidagi aholi punktini tanlangan.

Xonqa tumani 3000 kishilik aholi punktini loyihalashda bir qator: funksional, badiiy-estetik, sanitar gigiena, zilzilaga qarshi, iqtisodiy va boshqa talablar qo'yiladi.

Bosh rejada ajratilgan maydon mavjud bo'lib, loyihalananayotgan 5000 kishilik daha maydoni atrofi ko'klamzor qilinib Xorazm iklim sharoitida usadigan mevali va manzarali daraxtlar bilan obodonlashtiriladi hamda uning xududida aholiga hizmat ko'rsatish shahobchalari loyihalanadi.

Aholi punktini kompozitsion yechimi binolar uchun ajratilgan xududga mos tushgan. Arxitekturaviy o'ziga xoslik bilan hamoxang bog'langan.

Kompozitsiya mehmoriy asarlarda ishlatiladigan badiiy vositalarning o'zaro bog'liqligini aniqlaydi. O'ymakorlik uchun spetsifik va asosiysi badiiy vositalarining ifodalanishi yahni uning formalarini fazo va tektonikasini tashkil qilishdir. (Tektonika konstruktsiya va material ishlashining tashqi badiiy ifodalanishidir.) Bu ikki bog'liq vosita fazo va uni tashkil qiluvchi qobigi mehmoorchilik asarida ajralmasdir. Fazoni tashkil qilish o'ymakorlikda funksional texnika konstruktiv va estetik talablarga bo'ysunadi.

Bu yerda nafaqat ideal estetik ifodalanishda, balki insonning psixofiziologik xis-tuyg'ulariga ham javob bo'ladi. Bu esa mehmoorchilikning barcha rivojlangan davrlardagi formalarining tarkib topish usullarini aniqlaydi. Bunday usullarga:

simmetriya va assimmetriya, nuans va kontrast, ritm, bo`lak, umumiylik orasidagi praportsiya hamda moslashishning mahlum tiklanishlari misol bo`la oladi.⁴

Loyihalanayotgan daha kompozitsiyasi o`ziga xos assimetrik ko`rinishi hamda salovati bilan shu xududga mosdir. Aholi punkti tashqi ko`rinishi asosan atrofidagi binolarga mos xolda ishlov beriladi. Suvoq qilinadi va tarz qismi maxsus bo`yoq bilan bo`yaladi.

Turar joy qurilishi va turar joylar fondi

SHaharda turar joy qurilishining rivoji asosan o`rta kavatli turar joylarning bir oilaga 90 dan 120 m² gacha maydondagi qurilish hisobiga ko`zda tutiladi. SHuningdek shunday maydonga ega ikki qavatli kvartiralar qurilishi taklif etiladi.

Hisob muddatiga qo`shilayotgan, maydon hududi shahar mehyoridan katta bo`lgan qishloq joylarida, bosh planda bu hududlarni zichlashtirishni olib borish taklif etiladi.

Noiqtisodiyliги va noqulayligini inobatga olib, loyihada kup qavatli sektsiya qurilishlarining rivoji ko`zda tutilmagan.

Sotsial muhit rivoji

Aholi hayot faoliyatini yaxshilash uchun bosh planda o`z tarkibiga har bir turar joy punktlarida yashaydigan aholi miqdori bilan muvofiqlikda joylashadigan meditsina, maktabgacha va maktab muassasalari, savdo, ovqatlanish, maishiy xizmat ko`rsatish obhektlarini o`z ichiga olgan madaniy-maishiy xizmat ko`rsatish obhektlarining rivoji nazarda tutiladi. Bundan tashqari, sotsial muhitda Xonqa tumani markazining vazifasini kuchaytirish va sotsial infratuzilmali obhektlar bo`yicha tahminotni aholi sotsial talablari va mavjud shaharsozlik mehyorlari bilan muvofiq darajagacha yetkazish mo`ljallanadi.

Transport, ko`cha va magistrallar tizimi rivoji

Magistrallar loyiha sistemasi zamonaviy shaharsozlik talablaridan kelib chiqqan holda ishlab chiqilgan, yahni:

- Xonqa tumani asosiy elementlari orasidagi qulay aloqani tahminlash: markaz bilan, sanoat hududlari bilan, turar joy rayonlari va tashqi yo`llar bilan;

- Xonqa tumani ko`chalarini ularning vazifasi, texnik xususiyati va qabul qilingan tuzilma bilan bog`liqlikdagi planirovka yechimi bo`yicha tabaqalashtirish (differentiatsiyalash).

Xonqa tumani magistral ko`chalari sistemasi uning rivojini hisobga olib qabul qilingan.

Magistrallarning umumiy sistemasi bu tuman markazi aholisiga madaniy-maishiy vazifadagi xizmatlar va obyektlardan foydalanishga imkon yaratadi, bu esa yo`lovchilar oqimining ko`payishida namoyon bo`ladi.

Muhandis-texnik infratuzilma rivoji

Xonqa tumani ni bosh planida muhandislik ta`minoti darajasini muhandislik infratuzilmasining hamma turlari bo`yicha ularning mustahkam va iqtisodiylikni oshirgan holda 100% gacha oshirish, resurs ehtiyot texnologiyalari, hisob uskunalarini kiritish va muhandislik texnik infratuzilmasidan foydalanishni tartibga solish, muhandislik sistemalari mustahkamlik va samaradorligi darajasini ko`tarish belgilangan.

Suv ta`minoti bo`yicha:

Bosh planda turar joy va jamoat binolarida kommunal-maishiy sarflar va sanoat korxonalarini ehtiyoji uchun, yong`inni o`chirish, mukammallashgan qoplamalarni yuvish, kvartallar ichidagi ko`kalamzorlarni sug`orish, shuningdek suv tahminoti va kanalizatsiya ehtiyojlari uchun xo`jalik-ichimlik sarfini uzluksiz tahminlash maqsadida Xonqa tumani ni suv ta`minoti markazlashgan sistemasini rekonstruksiyalash va kengaytirish nazarda tutiladi.

Kanalizatsiya bo`yicha:

Xonqa tumani shahrining loyihalangan kanalizatsiya sistemasi noto`liq, ajralgan ko`rinishda qabul qilingan. Xozirgi vaktida bu sistema ishdan chikkan bo`lib Xonqa tumani iktisodiy axvoli yomonlashuvi va boshkaruv sistemasini buzilganligi bunga sabab buladi. Xozirgi vaktida katta muommolardan biri toza ichimlik suvi bo`lib har xonadon o`zlari alohida septiklar chukurlardan suvakava suvlarini okizish uchun foydaladilar axolisi mutloko toza ichimlik suvi bilan taminlanmagan.

Atmosfera yog`inlari irrigatsion tizim orqali oqiziladi. Xonqa tumani kanalizatsiya masalalari yechimi uchun quyidagilar zarur:

kanalizatsiyaning mavjud tozalash inshootlarini kengaytirish;
kanalizatsiya kollektorlarini tozalash.

Sanitar tozalash bo`yicha:

Xonka tumani ni tozalash- bu chiqindilarni yig`ish, olib ketish, zararsizlantirish va foydalanish bo`yicha sanitar-gigienik tadbirlar kompleksidir.

Planli-muntazam tozalashda Xonka tumani butun hududi, binolarning, ularni qaysi tashkilotga tegishligidan qathiy nazar hamma turlari qamrab olinadi.

SHaharning sanitar tozalanishi quyidagicha hal qilinadi:

Qattiq moddiy chiqindilarni mavjud axlat to`kish joylariga olib borish;
shahar hududida zamonaviy sanitar talablarga javob beruvchi axlat yig`ish maydonchalarini joylashtirish va qurish;

hayvonlar o`ligini veterinar-sanitar qoidalari bilan muvofiqlikda axlat to`kish hududidagi

axlat to`kish hududida qattiq moddiy chiqindilarni joylash, zichlash va izolyatsiya qilish bo`yicha ishlarning mexanizatsiyasi;

axlat to`kish hududida atmosfera, tuproq, yer yuzasi va yer osti suvlarini ifloslanishdan himoyalashni tahminlovchi, kasal tarqatuvchi organizmlarning tarqalishiga qarshilik ko`rsatuvchi va axlat to`kish uchun ajratilgan hududdan foydalanishni tahminlovchi inshootlarni qurish;

axlat to`kish joyidan foydalanish to`xtatilgandan so`ng uning hududi planlashtirilishi, chim ekilishi va foydalanishga qaytarilishi mumkin.

Xonka tumani tozalash muammosini hal etish uchun quyidagilar zarur:

ixtisoslashgan avtobazalarni zarur texnika bilan tahminlash;
mukammallashgan chiqindi to`kish joyini qurish.

Elektr ta`minoti loyhalanayotgan turar joy dahasining shimoliy sharq qismida mavjud bo`lgan aholi yashovchi kvartalda joylashgan transformator podstantsiyasini kengaytirish va uni yonida yangi podstantsiya kurish orqali amalga oshiriladi energosistemasidan amalga oshiriladi.

SHahar elektr tarmog`i muammolarini hal etish uchun quyidagilar zarur:

Mavjud yuqori voltli podstantsiyalar rekonstruktsiyasini o`tkazish;
qator yangi yuqori volg`tli elektr podstantsiyalari qurilishini amalga oshirish.

Undan tashkari xozirgi bozor iktisodiyoti sharoitida yangi tejimli yelektr texnologiyalarini olib kirish, jumladan bizning issik ulkamizda kuyosh yenergiyasidan va shamolli kunlarda shamol yelektr stantsiyalarini bunyod kilish yelektr taminotini yaxshilash xamda tejashga olib keladi. Bularni amalga oshirish mushkul kechishi bizda xali bu texnologiyalar rivojini sustligi va kimmatligi bulsa, rivojlangan mamlakatlarda buni aksini kuramiz. Xozirda xayotni uzi bizni bu yunalishga utishga majbur kilmokda.

Issiqlik ta`minoti bo`yicha:

Loyiha boyicha yo`sh oilalar uchun quriladigan namunali turar-joylarda muqobil issiqlik manbai bilan, 4 qavatli hamda ko`p turar-joy binolarini issiqlik bilan ta`minlashda zamonaviy issitish tizimi orqali amalga oshiriladi, madaniy-maishiy ob`ektlari uchun xam nazarda tutiladi.

Ammo hozirga kelib markazlashgan issiklik ta`minotining to`liq ishdan chiqqanligi ularni qaytadan zamonaviy usulda tiklashni talab etmoqda.

Issiqlik qo`p qavatli turar joy va jamoat binolariga isitish, ventilyatsiya, issiq suv ta`minoti, shuningdek sanoat korxonalarining texnologik ehtiyojlari uchun beriladi.

Bosh planda markazlashtirilgan manbaalar issiqlik o`tkazishni 76,0 Gkal/soatgacha yetkazish mo`ljallangan. Buning uchun mavjud qozonxonalar rekonstruktsiyasi va turar joy hamda jamoat binolari ko`payishi sababli yangilarini qurish zarur. O`rta qavatli turar joylar uchun gazda ishlaydigan ma`lum bir individual qozonxonalar nazarda tutiladi.

Gaz tahminoti bo`yicha:

Xonqa magistral yoli boyidan o`tgan o`rta bosimli gaz quvuri gaz taqsimlash punktlari yo`rdamida loyihalanayotgan daha bino va inshootlarini tabiiy gaz bilan ta`minlaydi. Bosh planda gaz uzatish turar joy, qozonxona va sanoat korxonalarini uchun nazarda tutiladi. O`rta qavatli binolarga gaz ovqat tayyorlash uchun beriladi. Har bir xonadonda zamonaviy issitish tizimi mavjud, sanoat korxonalariga xam zamonaviy o`zini o`zi issitish tizim mavjud.

Xonqa tumanini gaz ta`minoti manbalari bo`lib GRS, GRP, shuningdek mavjud o`rta bosimli ko`cha tizimlari xizmat qiladi. SHahar gaz tahminoti muammosini hal etish uchun quyidagilarni amalga oshirish zarur:

gaz taqsimlash stantsiya va tizimlari rekonstruksiyasi;

gaz harajatining hisoblash uskunalarini yo`lga qo`yish va ilmiy-texnik yuksalish yutuqlarini energetika va sanoat ishlab chiqarishida tadbiq etish.

Irrigatsiya bo`yicha:

Bosh planda perspektiva uchun Xonqa tumani kanali shahobchalaridan sug`orishning hamma sistemalarini saqlash, ularni to`liq rekonstruksiyalash va kanalning qolgan qismlarini ko`chalarning loyihaviy ko`ndalang o`lchamlariga muvofiqlikda trassalashtirgan holda ustini qoplash, buning ustiga sug`orish ariqlari, kanallari, suv bo`linmalari bo`yicha, quvurlar davom etgan.

Bundan tashqari quvurlarning suv olish qurilmalariga quyilish joylarida suv quyilish joyi inshootlari loyihalashtirilgan. Kanallar bo`ylab aholining dam olish uchun piyodalar yo`lkalari va trotuarlar o`tkazilgan. Ularning chetida mikroiklim va ekologik holatni yaxshilash uchun ko`kalamzorlashtirish nazarda tutilgan. Bosh planda hududni ochiq tizim, suv purkagich va kombinatsiyalangan usul bilan sug`orish mo`ljallangan. SHuningdek yer osti suvlari sathini pasaytirish bo`yicha shahar hududida tadbirlar ko`zda tutilgan (gorizontal va vertikal drenaj). Drenajlarning (yer osti quvurlari) hammasini tozalash yangi o`zlashtirilgan yerlarga yangitdan qo`yish ko`zda tutilgan.

Xonqa tumani funktsional-reja va me`moriy-fazoviy yechimi

Xonqa tumanining funktsional-planirovka va me`moriy-fazoviy rivoji shunga asoslanganki, Xonqa tumani hududi funktsional foydalanishi bo`yicha sanoat va

Xonqa tumani chetki hududlariga bo`linadi. Bu hududlar o`z tarkibiga o`n bitta mahsulot(hosila)ni oladi, ulardan shahar reja sistemasi hosil bo`ladi. Me`moriy-tarixiy hudud Urganch Xonqa yo`lining shimoliy qismida joylashgan va planirovkali tarzda uning tuzilishida ishtirok etadi.

Xonqa tumani muhiti rivojining yechimi toppish uchun bosh plan ta`siri doirasida quyidagilar zarur:

Xonqa tumanini rivojining har bir bosqichida sharqiy va janubi-sharqiy hududlarni qamrab olgan rivojlangan transport va muhandislik infratuzilmasiga ega zamonaviy uylarni yaratish;

Xonqa tumanini yangi markazini ma`muriy, sport-park va meditsina muassasalari joylashgan hududga ega yadrosi, shuningdek yangi hududlar o`zlashtirilgan rayonda markaz oldi joylarini shakllantirishni amalga oshirish;

Yuzaga kelgan Xonqa tumanini sanoat hududlarida hokimlik qiluvchi shamollarni hisobga olgan holda va bu hududlardan me`yoriy sanitar-himoya hududlarini yaratish bilan sanoat korxonalarini rivojini davom ettirish;

Hudud planirovka karkasini transport va tabiiy landshaft o`qlari asosida shakllantirish va rivojlantirish;

Umumshahar markazi va planirovka tuzilmalari markazlarini rivojlantirish; rekonstruktsiyalangan hududlarda turar joy binolari zichligini oshirish hisobiga shahar yerlaridan samarali foydalanish;

hudud kompozitsion tuzilishini mukammallashtirish va Xonqa tumani ni muhiti estetik sifatlarini oshirish.

Ekologik-shaharsozlik rivoji

Xonqa tumanida havo basseynini sog`lomlashtirish maqsadida bosh plandan havoning changlanishi va gazlanishini kamaytirish, sanoat chiqindilarini cheklash bo`yicha tadbirlar ko`zda tutiladi. Loyihalangan korxonalar atrofida ko`kalamzorlashtirilgan sanitariya-himoya hududini yaratish nazarda tutiladi.

Xonqa tumani ob`ektlari issiqlik ta`minotidan chiqadigan tutunlarni kamaytirish uchun issitish maqsadida elektr va gazdan foydalanish taklif etiladi.

Xonqa tumanidagi mavjud qator magistrallar o`tish joylarini kengaytirish va transport oqimi harakatini tezlashtirish maqsadida rekonstruktsiya qilinadi. Bosh

planda shuningdek kanallar, kollektorlar bo`ylarida suv saqlash hududlarini yaratish yo`li bilan tartibga solish nazarda tutiladi.

SHovqinga qarshi tadbirlarni shahar asosiy magistrallari bo`ylab ko`kalamzorlashtirish yo`li bilan amalga oshirish ko`zda tutiladi.

Elektr uzatish tizimlari bo`ylab muhofaza hududlari yo`laklarini tashkil qilish bo`yicha ishlar davom ettiriladi. Xonka tumanini markaziy podstantsiyasi rayonida shovqinga qarshi ko`kalamzor hududni yaratish zarur.

Mavjud magistral obodonlashtiriladi va uning chekkasi bo`ylab hudud ko`kalamzorlashtiriladi.

Xonka tumanida *ekologik muammolarni hal qilish uchun quyidagilar zarur:*

-transport infratuzilmasi, qurilish va energetik komplekslarining texnik va texnologik qayta qurollanishini mukammallashtirish, ko`kalamzor va suvlashtirilgan hududlarni mehyoriy ko`rsatkichlargacha oshirish hisobiga ekologik vaziyatni yaxshilash;

-aholi yashaydigan muhit (er, atmosfera, suv) sifatini nazorat qilishni kuchaytirish;

-gorizontal va vertikal drenaj yer soti quvurlarini qurish yo`li bilan, kanallar qirg`oqlarini betonlashtirish, drenaj kollektorlarini tozalashni tashkil etish yo`li bilan shahar hududining tuproq va gidrogeologik sharoitlarini yaxshilash;

-er osti suvlari holati monitoringi sistemasini tashkil qilish.

TUSHUNTIRISH XATI

«Xonka tumanida 3 ming kishilik axoli yashash punktini loyihalash» ob'ektining smeta xujjatlari Vazirlar Maxkamasining 5-avgust 2000 yildagi № 305 **«Kapital kurilishda iktisodiy reformalarni chukurlashtirishning kushimcha choralari»** va 11-iyun 2003 yildagi № 261 **«Markazlashgan kapital mablaglar xisobidan investitsiya loyixalarini amalga oshirishda shartnomaviy joriy narxlarga utish»** va **«Jamoat va turar-joy bino va inshootlarini kurishda loyixa- smetalarini tarkibi, ularni ishlab–chikish tartibi»** (SHNK 1.03.01-04) va UzDavarxitekkurilish komiteti tomonidan **«Uzbekiston Respublikasida kurilish ob'ektini smeta baxosini aniklash»** buyicha ishlab chikilgan tavsiyanomasiga (SHNK 2004 – 2005) va **«Uskuna jixozlarni montaj narxlar»** (SHNK 4.13.00 – 05) koidlariga amal kilgan xolda ishlab chikildi.

